



SIYOSIY NUTQLARNING PRAGMATIK VA DERIVATSION XUSUSIYATLARI

Ismatova Shaxnoza Axror qizi

*Qarshi davlat universiteti 1-kurs tayanch doktoranti
Iqtisodiyot va Pedagogika universiteti o'qituvchisi*

Annotatsiya. Mazkur maqolada siyosiy leksikaning struktur-derivatsion, grammatik xususiyatlari haqida fikr-mulohazalar bildirildi.

Kalit so'zlar: struktur- derivatsion, grammatik, ifoda, termin, sodda, qo'shma, juft, takror.

Ma'lumki, til va jamiyat bir-biri bilan chambarchas bog'langan. Jamiyatdagi o'zgarishlar tilda o'z ifodasini topishi zarur. Shu nuqtayi nazardan terminologiya tilshunoslikning tez o'zgaruvchan va murakkab tuzilishga ega sohasi hisoblanadi. Har bir fan terminlar tizimidir. Rus faylasufi P.A.Florenskiy terminlarning fandagi o'rnini quyidagicha izohlagan: "Fanning mohiyati terminologiyani tuzish, aniqrog'i, joy-joyiga qo'yishdan iborat. Terminlar hayoti fan tarixining o'zidir".

Tilshunoslik ham o'z lingvistik terminlariga ega. Til ta'limiga lingvistik terminlar mohiyatini o'rganish asosida kechadigan jarayon sifatida qarash mumkin.

Terminlarning standartligini ta'minlash va modellashtirish, shuningdek, tarjima jarayonida ularning moddiy ko'rinishi muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa ilmiy terminologiya, terminografiya taraqqiyoti, terminologik korpus, terminologik ma'lumot bazalarini yaratishning asosiy shartidir. Terminshunos olim R.Doniyorov terminologik sistemani guruhlariga bo'lib o'rganishning imkoniyatlari xususida ta'kidlaganidek, bu jarayon, birinchidan, shu sistemaning umumtermin boyligi haqida tasavvur hosil qiladi; ikkinchidan, bu sistemaning so'z yasash imkoniyatlari haqida ma'lumot beradi; uchinchidan, sistemaning har qaysi mavzu guruhidagi so'z yasash modeli qanday ekanligini aniqlab beradi. Siyosiy nutqni so'zlovchilar tomonidan boshqalarga ta'sir qilish yoki ishontirish maqsadida aniq ma'no berishga harakat qiladigan kommunikativ harakat sifatida aniqlash mumkin. Boshqacha qilib aytganda, siyosiy nutqni mafkuraviy maqsadlarga xizmat qiluvchi lingvistik strategiya - manipulyatsiya sifatida aniqlash mumkin. Siyosiy nutq rasmiy munozaralarni yoki tinglovchilar va oila a'zolari o'rtasida siyosat bo'yicha olib borilgan norasmiy nutq munozaralarni ham o'z ichiga olishi mumkin. (Liebes va Ribak, 1991).

Siyosiy nutq mohiyatan shaxs va jamiyat o'rtasidagi munosabatlarning butun majmuasining ifodasidir va shuning uchun bu hodisa mohiyatan funksional jihatdan qabul qiluvchilar o'rtasida dunyoqarash yoki dunyo tasvirining ma'lum bir bo'lagini shakllantirishga qaratilgan. Siyosiy nutqdan tayanch tosh sifatida foydalanib, turli til jamoalarida madaniy qadriyatlar qanday modellashtirilganligini, ijtimoiy tartib qanday targ'ib qilinishini, dunyoning lingvistik tasvirining qaysi elementlari ma'ruzachilarning



ongli nutq strategiyalaridan tashqarida qolayotganini tushunish mumkin. Har bir til ham jamiyatiga xos bo'lgan dunyoning konseptual tasviri shakllantiradi. Siyosiy matnda ekstralingvistik ma'lumotlar (dunyo tasviri) va belgi ma'lumotlari (belgi, nominatsiya orqali taqdim etilgan dunyo tasviri) mavjud.

Siyosiy nutqlarda qo'llaniladigan siyosiy leksikalarni shakliiy tuzilishiga ko'ra quyidagicha tasnif qilish mumkin:

1. Sodda terminlar
2. Qo'shma terminlar
3. Juft terminlar

Sodda terminlar. Sodda terminlar ot turkumiga mansub bo'lib, bir o'zak va shakliiy-ma'noviy yaxlitlikka ega bo'ladi. Masalan: respublika, davlat, prezident, xalq, va b. Sodda terminlar derivatsion xususiyatlariga ko'ra sodda tub terminlar va sodda yasama terminlarga bo'linadi:

- sodda tub terminlar: vatan, do'st, farzand, fojia, h.k.
- sodda yasama terminlar: birdamlik, porloq, bevaqt, bunyodkorlik, nufuzli kabi.

Qo'shma terminlar. Bunday terminlar birdan ortiq o'zak birikuvidan iborat qo'shma so'zlar hisoblanadi. Siyosiy nutqda quyidagi qo'shma so'zlarni uchratishimiz mumkin: erksevar, mehnatkash, mehmondo'st va asosan joy nomlariga murojaat qilinganda ishlatiladi. Qashqadaryo, Surxandaryo, Sirdaryo, Qiziltepa kabi...

Juft terminlar. Juft terminlar ikki so'zning juftlanishi asosida hosil bo'ladi. Juft terminlar birdan ortiq leksik birlikdan tashkil topadi va birikma holatida bo'ladi: ijtimoiy-iqtisodiy, iqlim o'zgarishi, xavf-xatar, oziq-ovqat, va b.

Kuzatishlardan ma'lum bo'ladiki, siyosiy nutqda soda, juft, qo'shma terminlar uchraydi, ammo nisbatan qo'shma terminlar qo'llanilishi kam.

Affiksatsiya usulida so'z yasash hozirgi o'zbek adabiy tilida bo'lgani singari siyosiy leksikada ham yangi so'z yasashda faol usullardan biri sanaladi. Umumo'zbek tili doirasida mavjud bo'lgan so'z yasovchi qo'shimchalarning aksariyati ushbu leksika so'z va atamalarini yasashda qatnashadi. Bu qo'shimchalarning eng muhimlari sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin: *-chi, -gir, -xona, -kash, -kor, -don, -lik, -chilik, -li, -simon, -soz, -furush, -shunos, paz, -xo'r, -boz* va boshqalar. Bu qo'shimchalar vositasida siyosiy leksikaga oid turli so'z va terminlar yasalishini kuzatamiz.

Quyida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Navro'z umumxalq bayramiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi tabrik nutqidan parcha keltiramiz:

"...Navro'z hammamizga **insoniylik**, mehr-oqibat va **bag'rikenglik** fanidan saboq beradi. Shu fayzli lahzalarda barchamiz **tinchlik** va **osoyishtalik** naqadar **bebaho** ne'mat ekanini, uning qadr-qimmatini va ahamiyatini yaxshi anglaymiz. Ayni shu



kunlarda bag‘rikeng diyorimizda millatlararo **do‘stlik**, o‘zaro hurmat, saxovat va muruvvat tuyg‘ulari yaqqol namoyon bo‘lmoqda. Inson qadrini ulug‘lashga qaratilgan ezgu ishlarimiz doirasida keng **jamoatchilik** uyma-uy yurib, bemorlar, keksa va nogironlarga, ko‘makka muhtoj oilalarga mehr-oqibat, amaliy yordam ko‘rsatmoqda. Biz, barcha havas qiladigan bunday boqiy urf-odatlarimizni ko‘z qorachig‘idek asrab, aziz farzandlarimizni mana shunday yuksak **odamiylik** ruhida tarbiyalashni davom ettirishimiz lozim”.

II. Sintaktik usul bilan so‘z yasalishi siyosiy leksikada eng sermahsul ekanligi kuzatiladi. Soha leksikasi tarkibiga kiruvchi qo‘shma so‘zlarning ko‘pchiligi neologizmlar sanaladi.

Quyida Prezidentimizning yuqori darajadagi “BMT Global aksilterror strategiyasini amalga oshirish bo‘yicha Qo‘shma harakatlar rejasi doirasida Markaziy Osiyo mamlakatlarining mintaqaviy hamkorligi” xalqaro konferensiyasi ishtirokchilari so‘zlagan nutqidan parcha keltirib unda qo‘shma so‘zlarni izohlaymiz.

“...BMTning Aksilterror boshqarmasini 2020-yilda qabul qilingan Markaziy Osiyoda **kiberxavfsizlik** va yangi texnologiyalar bo‘yicha dasturlarini bajarish bo‘yicha sa‘y-harakatlarni faollashtirishga chaqirib qolamiz. Ushbu dastur doirasida **kiberterrorizm** sohasida tajriba va ma‘lumotlar, tadqiqotlar va eng yaxshi tajribalar almashinuvini rivojlantirishga qaratilgan Markaziy Osiyoda **kiberterrorizm** bo‘yicha Yagona elektron tizimni yaratish zarur deb hisoblaymiz. Bundan tashqari, **kibermakonda** xavfsizlikka tahdidlarning **transchegaraviy** xarakterga ega ekanligi axborot makonida ekstremizm va terrorizmning turli ko‘rinishlariga qarshi samarali kurashish imkonini beruvchi yagona xalqaro huquqiy mexanizmlarni yaratishni taqozo etmoqda. Bu masala yuzasidan muloqot tashkil etish va uni muvofiqlashtirishda BMT ko‘magiga umid bildiramiz.”

Demak, o‘zbek tilining siyosiy leksikasi tarkibidagi yasama so‘z va atamalar umumtil so‘z yasalish sistemasi qoidalari va prinsiplari asosida yuz bergan. Tilda siyosiy maqsad va manfaatlar, dunyoqarash, his-tuyg‘ular o‘z aksini topadi. Siyosiy nutqda ko‘pincha leksik va stilistik vositalar qo‘llaniladi, bu ularning katta argumentativ salohiyati, katta obrazlilik bilan izohlanadi, chunki bu matnlar ommaviy nutq uchun mo‘ljallangan va tinglovchining diqqatini darhol jalb qilish, uning his-tuyg‘ulariga ta‘sir qilish uchun mo‘ljallangan.

Shuningdek, til har qaysi millatning ijtimoiy-siyosiy taraqqiyotiga mos tarzda rivojlanib boradi. Ya‘ni til jamiyat hayotining barcha sohalarida amalda bo‘lib, ijtimoiy-siyosiy taraqqiyot strategiyasini belgilashga xizmat qiladi. Zero, til xalqning ruhiyati, yashash tarzi mahsulidir. Shu nuqtai nazardan qaraganda, har bir millat o‘z tilining taraqqiyoti uchun qayg‘uradi, rivojlanish asoslarini mustahkamlashga harakat qiladi. Bu



jarayon esa tilning siyosiy-falsafiy asoslarini tadqiq etganda yanada chuqurroq ma'no-mazmun kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Современная политическая лингвистика: учебное пособие / Э. В. Будаев, М. Б. Ворошилова, Е. В. Дзюба, Н. А. Красильникова; отв. ред. А. П. Чудинов; Урал. гос. пед. ун-т. — Екатеринбург, 2011. С. 9
2. Синельникова Л. Н. Политическая лингвистика: координаты междисциплинарности // Политическая лингвистика. — 2009. — № 30. — С. 41
3. Баранов А. Н. Введение в прикладную лингвистику: Учеб. пособие. / А. Н. Баранов; — М.: Эдиториал УРСС, 2001. — С. 245—246
4. Р.Ж. Шварценберг. Политическая социология. М., 1992, — С.174
5. Баранов А. Н. Введение в прикладную лингвистику: Учеб. пособие. / А. Н. Баранов. — М.: Эдиториал УРСС, 2001.— 360 с.
6. Будаев Э. В., Чудинов А. П. Зарубежная политическая лингвистика. М.: Наука; Флинта, 2008. — 352 с.
7. Будаев Э. В., Чудинов А. П. Современная политическая лингвистика. Екатеринбург: УрГПУ, 2006. — 252 с.
8. Паршин П. Б. Исследовательские практики, предмет и методы политической лингвистики / In Scripta linguisticae applicatae. Проблемы прикладной лингвистики. Москва, 2001.
9. Abdurakhmanova, D. K., Karimova, N. M., & Sh, B. R. (2019). Modern Problems of Linguistics and Methods of Teaching English Language. International Journal on Integrated Education, 2(6), 15-17.
10. Ubajdullaev, S. N. (2021). The use of mental cards when teaching a foreign language for university students. International Journal of Progressive Sciences and Technologies (IJPSAT)(ISSN: 2509-0119), 25(2), 90.
11. Karimova, N. (2024). THE PROCEDURE FOR WARNING RESIDENTS OF THE NEIGHBORHOOD ABOUT EMERGENCY SITUATIONS. Modern Science and Research, 3(1).
12. Karimova, N. (2023). ORGANIZING POPULATION RELOCATION MEASURES WHEN THE RISK OF EMERGENCIES ARISES AND OCCURS. Modern Science and Research, 2(10), 361-363.
13. Karimova, N. (2023). FIRST AID FOR THE INJURED IN EMERGENCIES. Modern Science and Research, 2(10), 364-367.
14. Ma'mura, Y., Durдона, B., Umida, N., Umida, Y., & E'zoza, A. (2020). Methodology of teaching English for specific purposes and difference between general English. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol, 8(1).
15. Ne'matillayevna, A. E. Z., & Bokijonovna, Y. M. (2022, March). The Importance of Strategic Competence As an Aspect of Communicative Competence. In E Conference Zone (pp. 89-90).



16. Akbaraliyevna, M. V., & Ne'matillayevna, A. (2023). The Importance of a Modern Method of Teaching a Foreign Language.
17. Yuldasheva, M. B. (2022). LISTENING PROBLEMS IN FOREIGN LANGUAGE ACQUISITION. Евразийский журнал академических исследований, 2(3), 199-205.

